

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA BALANSLASHGAN KO‘RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH

Sattikulova Gulnora Axmadxonovna

Andijon davlat texnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: sattikulova@astiedu.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida samaradorlikni oshirishda balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi (BKT)dan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda BKT korxona faoliyatining moliyaviy va nomoliyaviy jihatlarini yagona boshqaruv mexanizmiga integratsiyalovchi strategik boshqaruv vositasi sifatida talqin etiladi. Maqolada iste’molchilar bilan ishlash, ichki xo‘jalik jarayonlari, innovatsion rivojlanish va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida samaradorlikni baholash imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, to‘qimachilik korxonalarida BKTni joriy etish orqali boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan xulosalangan.

Kalit so‘zlar: balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimi, to‘qimachilik sanoati, strategik boshqaruv, samaradorlik, moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar, innovatsion rivojlanish, ichki biznes jarayonlari, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В статье раскрываются теоретико-методологические основы повышения эффективности предприятий текстильной промышленности на основе сбалансированной системы показателей (ССП). ССП рассматривается как инструмент стратегического управления, интегрирующий финансовые и нефинансовые аспекты деятельности предприятия в единую управленческую систему. Обоснованы возможности оценки эффективности на основе взаимосвязи показателей работы с потребителями, внутренних бизнес-процессов, инновационного развития и финансовых результатов. Сделан вывод о том, что внедрение ССП на предприятиях текстильной отрасли способствует совершенствованию управленческих процессов, рациональному использованию ресурсов и повышению конкурентоспособности.

Ключевые слова: сбалансированная система показателей, текстильная промышленность, стратегическое управление, эффективность, финансовые и нефинансовые показатели, инновационное развитие, внутренние бизнес-процессы, конкурентоспособность.

Abstract

This article examines the theoretical and methodological foundations for improving efficiency in textile industry enterprises based on the Balanced Scorecard (BSC). The BSC is considered as a strategic management tool that integrates financial and non-financial aspects of enterprise activity into a unified management system. The study substantiates the possibilities of performance evaluation based on the

interrelation between customer relations, internal business processes, innovation development, and financial results. It is concluded that the implementation of the BSC in textile enterprises contributes to the improvement of management processes, efficient resource utilization, and enhanced competitiveness.

Keywords: Balanced Scorecard, textile industry, strategic management, efficiency, financial and non-financial indicators, innovation development, internal business processes, competitiveness.

KIRISH

To'qimachilik sanoati korxonalarida samaradorlikni oshirish boshqaruv qarorlarining sifati va resurslardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Faoliyat natijalarini faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash korxona rivojlanishining to'liq manzarasini bermaydi. Moliyaviy natijalar ishlab chiqarish jarayonlari, mahsulot sifati, mijozlar bilan munosabatlar, xodimlar salohiyati va innovatsion faoliyat natijasida shakllanadi. Shu sababli samaradorlikni kompleks baholash zarurati mavjud.

To'qimachilik tarmog'i ko'p bosqichli ishlab chiqarish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Har bir bosqichda sifat, tannarx, vaqt va resurs sarfi ko'rsatkichlari shakllanadi. Ushbu ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda boshqarilmaganda operatsion uzilishlar yuzaga keladi, xarajatlar ortadi, yetkazib berish intizomi buziladi va moliyaviy natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda ko'rsatkichlar ko'pincha alohida bo'limlar kesimida yuritiladi. Strategik maqsadlar va joriy faoliyat o'rtasida muvofiqlik yetarli darajada ta'minlanmaydi.

Balanslashgan ko'rsatkichlar tizimi korxona faoliyatini moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida yagona boshqaruv tizimiga birlashtirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv natijaviy va omilli ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, boshqaruv qarorlarini asoslash hamda samaradorlikni izchil nazorat qilishga xizmat qiladi. To'qimachilik korxonalarida ushbu tizimni joriy etish ishlab chiqarish, marketing, moliya va kadrlar faoliyatini muvofiqlashtirishga imkon yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoati korxonalarida balanslashgan ko'rsatkichlar tizimi asosida samaradorlikni oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini yoritish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Balanslashgan ko'rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard) konsepsiyasi R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u korxona faoliyatini faqat moliyaviy natijalar asosida emas, balki strategik maqsadlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi orqali baholashni nazarda tutadi [4]. Mazkur yondashuv moliyaviy natijalar, mijozlar bilan munosabatlar, ichki biznes jarayonlari hamda rivojlanish va o'qitish yo'nalishlarini yagona boshqaruv mexanizmiga integratsiyalash imkonini beradi. Korporativ boshqaruv va strategik nazorat masalalari Pashkov R.V. va Yudenkov Yu.N. tomonidan o'rganilib, boshqaruv samaradorligini oshirishda ichki nazorat tizimi va ko'rsatkichlar monitoringining ahamiyati asoslab berilgan [4]. Aksiadorlik jamiyatlarida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish masalalari Ashurov Z.A. tadqiqotida yoritilib, unda boshqaruv jarayonlarining izchilligi va nazorat

mexanizmlarining samaradorlikka ta'siri ko'rsatib o'tilgan [7]. Ushbu nazariy yondashuvlar korxona faoliyatini kompleks baholash va strategik boshqaruvni ko'rsatkichlar tizimi asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi.

Sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish, resurslardan foydalanish va mintaqaviy rivojlanish masalalari Sattikulova G.A. tomonidan tahlil qilinib, sanoatni rivojlantirishda strategik boshqaruv vositalarining o'rni ko'rsatib berilgan [5]. Muallif mintaqaviy sanoatni rivojlantirish jarayonida boshqaruv ko'rsatkichlari tizimining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [6]. Hududiy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va tarkibiy o'zgarishlarni baholash masalalari Niyazov M.A. tomonidan o'rganilgan bo'lib, sanoat korxonalarida samaradorlikni kompleks baholash zarurligi qayd etilgan [8]. Mahsulot diversifikatsiyasi va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik Marifovich M.M. tadqiqotlarida yoritilgan [9]. To'qimachilik sanoatida mahsulot assortimentini kengaytirish va iqtisodiy natijadorlikni oshirish yo'llari Mukhtarov M. tomonidan tahlil qilingan [10]. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda to'qimachilik sanoati korxonalarida balanslashgan ko'rsatkichlar tizimini tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy joriy etish va moliyaviy hamda nomoliyaviy ko'rsatkichlarni yagona strategik boshqaruv tizimiga integratsiyalash masalalari yetarli darajada chuqur o'rganilmagan.

METODOLOGIYA

Strategiyani amalga oshirish mexanizmi sifatida to'qimachilik korxonasi faoliyatida muvozanatlashgan chora-tadbirni amalga oshirish dasturi ikki vazifani hal etishni o'z ichiga oladi: birinchisi - tizimning o'zi va ikkinchisi - undan foydalanish. Bu ikkala vazifa o'zaro bog'liqdir. BKT asosiy jarayonlarni boshqarish uchun ishlab chiqilar ekan, tizimning qaysi ko'rsatkichlari to'g'risida axborotning yetarli emasligi, ishlab chiqilishi zarurligi va strategik muvaffaqiyatlarni baholashning yangi mezonlaridan qaysi biriga kiritilishi kerakligi oydinlashadi. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- tayyorgarlik bosqichi - BKTni amalga oshirish uchun bo'linmani tanlash; BKTni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ishtirokchilar tarkibini va muqobil jadvalni aniqlash; ishtirokchilar o'rtasida sanoatning o'ziga xos xususiyatlari va to'qimachilik korxonasining o'zi haqida kelishish.


- ishlab chiqish bosqichi - to'qimachilik korxonasi missiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash; to'qimachilik korxonasi faoliyatining asosiy jihatlarini aniqlash; to'qimachilik korxonasi missiyasini faoliyatining asosiy jihatlarini uchun batafsil asosiy muvaffaqiyat omillarini aniqlash, ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlarni muvofiqlashtirish; korporativ strategik xaritaning ishlab chiqish;

- amalga oshirish bosqichi - tadbirlar rejasini ishlab chiqish va to'qimachilik korxonasi faoliyatida strategik xaritalarni amalga oshirish.

Ushbulardan kelib chiqqan holda balanslashgan ko'rsatkichlar tizimini va uning tarkibiy qismlari ahamiyatiga to'xtalamiz.

Moliyaviy munosabatlar. Korxona menejmentida moliyaviy masalalar yuqori ahamiyatga ega. Xususan, bunda aksiyadorlar va salohiyatli investorlarning

manfaatlaridan kelib chiqib, resurslarning samarador joylashtirilishi, xarajatlarni optimal darajada sarflanishi bo'yicha strategik maqsadlarni ishlab chiqish zarur.



1-rasm. Balanslashgan ko'rsatkichlar tizimi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik¹

¹ Muallif ishlanmasi

Ichki biznes-jarayonlar. Bunda korxonani intensiv rivojlantirish manbalarini tahlil qilish borasida maqsadlar qo'yiladi. Odatda, korxona ichidagi jarayonlarning to'g'ri tashkil etilishi intensiv rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

O'qitish va malakaviy tayyorgarlik. Menejment nazariyasi va amaliyotining tasdiqlashicha, korxona faoliyatini rivojlantirishda inson resurslari yuqori o'rinda turadi. Umuman olganda, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida yuqori malakali kadrlarning roli yanada oshadi, chunki ular texnika taraqqiyoti jarayonini rivojlantirishda asosiy kuch bo'lib qolmoqda[1].

Bozor omili yoki mijozlar bilan munosabatlar. Bu borada strategik maqsadlarning qo'yilishi bevosita milliy va jahon bozorlaridagi raqobat bilan bog'liq. Amaliyotning ko'rsatishicha, raqobat sharoitida mazkur blokni e'tiborga olmaslik xo'jalik subyektini bankrotlik xavfiga yaqinlashtiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik korxonalarida strategik boshqarishning muhim tarkibiy qismlaridan biri asoslangan rivojlanish strategiyasini belgilab olish hisoblanadi (1-rasm).

Strategik boshqarishda strategiyani aniq belgilash korxonani uzoq muddatga rivojlanish sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Balanslashgan ko'rsatkichlar tizimini qurish asosida esa korxona strategiyasi sifatini ta'minlovchi quyidagi jihatlarni aniqlashtirish imkoni mavjud:

–strategiyani puxta ishlab chiqishda qanday ichki va tashqi omillarni hisobga olish zarur?

– korxonaning raqobatchilarga nisbatan kuchli va zaif jihatlari nimalardan iborat?

– muayyan strategiyani amalga oshirish uchun korxonaning moliyaviy imkoniyatlari va xodimlarning malakaviy salohiyati qay darajada?

– strategiyani ishlab chiqishda korxona ishlab chiqarish faoliyatining aynan qaysi jihatlarga chuqurroq e'tibor berish zarur va h.k.

To'qimachilik korxonalari amaliyotida balanslashgan ko'rsatkichlar tizimini joriy etish uchun yuqorida qayd etilgan bosqichlar quyidagi tadbirlar orqali amalga oshirilishi lozim: mazkur tizimni kompleks ravishda qo'llanilishini va uning natijalarini tahlil qilinishi nazoratga olish va umumlashtirish vazifasini tegishli bo'linma zimmasiga yuklash; korxonaning BKT joriy etiladigan bo'linmalarini aniq ajratib olish; BKTni joriy etish uchun mas'ul bo'linmalar tomonidan ma'lumotlarni taqdim etish usullarini belgilash; BKTni amalga oshirish jarayonlarini qat'iy nazorat qilish, xususan uni amalga oshirish natijasida korxona faoliyatida aniqlangan sustkashliklar va xatoliklarni to'liq bartaraf etilishini qat'iy ta'minlash kabi masalalarni hal etish talab etiladi.

Balanslashgan ko'rsatkichlar tizimini korxonaning moliyaviy rejasini tuzish, byudjetini ishlab chiqishga ko'maklashuvchi vosita sifatidagina tushunmaslik kerak, aksincha, mazkur tizim asosida shakllangan ko'rsatkichlarni zarur darajada tahlil qilish, natijalarni baholash, maqbul rejalashtirish va nazorat qilish yaxshi samara beradi. Imkoniyatlar va natijalarni muvozanatlashtirish tizimi asosida to'qimachilik korxonasi faoliyatini boshqarish jarayoni algoritmini to'qimachilik korxonalari amaliyotiga tatbiq etishni bosqichlarda amalga oshirish mumkin. Natijada

to'qimachilik korxonasi faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish va qo'llash an'anaviy jarayonlariga "Strategiyadan harakat"ga tamoyili asosida boshqarish jarayoni algoritmini joriy etish orqali natijaviy ko'rsatkichlar va omillar bo'yicha muvaffaqiyatlar rejasini tuzish zamonaviy jarayonini kiritish taklifiga binoan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish natijasida rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlari asoslangan[6].

Umuman, "mexanizm" tushunchasining o'zi texnika sohasidan olingan va tibbiyot, biologiya va boshqa fan sohalaridan keyin iqtisodiyotga ham ko'chirilgan. Iqtisodiy tadqiqotlarda "mexanizm" atamasi turli so'z birikmalarida uchrashi bejiz emas, jumladan: bozor mexanizmi, ishlab chiqarishni boshqarishni rivojlantirish mexanizmi, xo'jalik mexanizmi, iqtisodiy mexanizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.

Atamaning bu kabi keng ma'noda qo'llanilishi uning fizikaviy mohiyati universal xususiyatga ega ekanidan dalolat beradi, shu bilan birga mazkur atamadan har safar foydalanilganda u tor ma'no kasb etadi.

Texnika nuqtai nazaridan, mexanizm - bu bir yoki bir necha jismlarning harakatini boshqa qattiq jismlarning harakatiga aylantirish uchun mo'ljallangan jismlar tizimi. Odatda, mexanizm dvigateldan harakatga keltiriladigan bitta kiruvchi bo'g'in va ishchi organ yoki asbobning ko'rsatkichi bilan bog'langan bitta chiqish bo'g'iniga ega bo'ladi. Bu ta'rif statika va dinamikani birlashtirishga ko'maklashadigan, ularning energiya uzatishga nisbatan tartibga solinishi va muvofiqligini ta'minlashga yordamlashadigan vosita hisoblanadigan mexanizm haqida umumiy tushuncha beradi va, birinchi navbatda, mexanizm - bu tizim ekanligiga ishora qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizningcha, boshqarish mexanizmlarini shakllantirishda muammoning yana bir jihati shundaki, ushbu mexanizmning qaysi bir tashkil etuvchisini alohida holda o'rganish talab etilishidir. Xususan, ayrim ilmiy adabiyotlarda ushbu mexanizmning yoki tashkiliy yoxud iqtisodiy jihatlarini o'rganish holatlari uchraydi.

Shu bilan birgalikda, fikrimizcha, ushbu mexanizmning har ikkala jihatlarini birlikda, yagona tizimda, o'zaro aloqadorlikda, o'zaro bog'liqlikda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ikkita tashkil etuvchining mavjudligi mexanizm mohiyatini ochib beribgina qolmay, balki unga tashkiliy-iqtisodiy mexanizm degan nomni ham beradi.

Iqtisodiy mexanizm iqtisodiy usullar yordamida subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi, ular o'zaro harakatlanishi qiziqishlarini ta'minlovchi munosabatlar, shakllar, usullar va vositalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy mexanizm korxona faoliyatida quyidagi ikkita guruh munosabatlarni tartibga soladi:

- korxona, shuningdek korxona bilan davlat o'rtasidagi;
- korxona va davlat o'rtasidagi bir tomondan, ikkinchi tomondan esa korxona va uning a'zolari o'rtasidagi.

"Ushbu munosabatlarni tartiblashtirish amalga oshiriladigan shakllar, vositalar va usullarni quyidagicha guruhlash mumkin: iqtisodiy subyektlar maqomini, mehnatga

haq to'lash tizimini aniqlovchi umumiy qoida va me'yorlar; narx belgilash tizimi; moliyaviy tizim; kreditlash tizimi"[4].

“To'qimachilik korxonalarida ichki faoliyatlar samaradorligini boshqarishda taklif etilgan tizim va usullarni amaliyotga joriy etishning samaradorligini oshirishda nazorat va tartiblashtirish vazifalarining yagona tizimini yaratish” [3] talab etiladi. Nazorat mexanizmi yordamida to'qimachilik korxonalari barqaror rivojida ishchanlik faolligini oshirishning istiqbolli imkoniyatlarini va xavf-xatarlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

To'qimachilik korxonalari tomonidan boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb muammosiga aylanib ulgurdi. Boshqaruv jarayonida kamaytirishning bir qator usullari mavjuddir.

“QODIR TEKSTIL” va “SABO TEXTILE”da taqsimlanmagan foyda hajmini oshirishning natijaviy omil ko'rsatkichlari sifatida unga ta'sir qiluvchi omillar tanlab olingan. Bunga Iqtisodiy va moliya vazirligi Andijon viloyati bosh boshqarmasining yetakchi ekspertlari tahlili asosida tanlab olingan.

X1 - korxonaning boshqaruv xodimlari miqdori;

X2 - korxonaning boshqaruv xarajatlari miqdori;

X3 - korxonaning kapital qo'yilmalar umumiy miqdori (1-jadval).

1-jadval.

2016-2024-yillarda «QODIR TEKSTIL» va «SABO TEXTILE»da kapital qo'yilmalar hamda boshqaruv faoliyati ko'rsatkichlarining o'zgarishi [2]

Yil	Taqsimlanmagan foyda , mln. so'm (Y)		Korxonaning boshqaruv xodimlari miqdori, kishi (X1)		Korxonaning boshqaruv xarajatlari miqdori, mln. so'm (X2)		Korxonaning kapital qo'yilmalar umumiy miqdori, mln. so'm (X3)	
	A	B	A	B	A	B	A	B
2016	11865,6	7381,4	65	48	10378,3	5318,2	202,9	222,6
2017	290,9	3729,1	67	51	10917,1	5764,9	298,9	305,3
2018	2518,9	3247,2	66	51	12185,0	6218,1	8498,3	357,9
2019	6223,5	4736,6	73	58	13869,9	7565,7	11493,6	427,8
2020	87703,9	51381,3	72	61	21893,3	10365,8	822,0	397,8
2021	83886,9	55117,2	78	65	30022,6	13193,4	194,9	15099,7
2022	72303,9	51212,7	84	67	35917,8	16385,3	91,7	7327,6
2023	99398,2	68927,4	88	75	41142,3	18852,5	151,1	671,8
2024	121258,1	84601,34	90,2	75,4	49160,17	21850,87	174	7009,28

“Endogen omil va unga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining mohiyati ko'riladigan bo'lsa, ta'sir etuvchi omillar sifatida boshqaruv xodimlari soni, boshqaruv xarajatlari hamda kapital qo'yilmalar hajmiga muhim ta'sirga ega bo'lgan omillarni ifodalovchi omil ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarish modeli ko'rinishidagi modelga yaqin bo'lgan bog'lanishga ega bo'linadi. Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida Andijon viloyatida “QODIR TEKSTIL” va “SABO TEXTILE”da sof foyda hajmining o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida

yuqoridagi vaqtli qator ko‘rinishidagi ma’lumotlarni EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi”[2].

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida amalga oshirilgan regression tahlilda aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati hisoblangan asosiy ko‘rsatkichlari orqali baholangan. Aniqlangan ma’lumotlardan foydalangan holda «QODIR TEKSTIL» da sof foyda hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar natijasida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tenglamasi quyidagicha” [2]:

$$y = -4683,32 \cdot x_1 + 6,22 \cdot x_2 - 0.032 \cdot x_3 + 254953,5$$

“Dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lozim. Aniqlangan trendda avtokorrelyasiya belgilangan optimal chegaradan bir oz pastligi (DW=1.47) va boshqa mezonlar bo‘yicha talabga javob berganligidan yuqorida aniqlangan (1) - regressiya tenglamasi ishonchli deb topildi va adekvatligi isbotlandi. Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko‘rsatkichlari orqali baholangan”. Aniqlangan ma’lumotlardan foydalangan holda «SABO TEXTILE»da sof foyda hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi:

$$y = 1366,6 \cdot x_1 + 2,52 \cdot x_2 + 0.584 \cdot x_3 - 78133,63$$

“Programmadan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lozim. Aniqlangan trendda multikolleniarlik belgilangan optimal chegaradan bir oz yuqoriligi (DW=2.55) va boshqa mezonlar bo‘yicha talabga javob berganligidan yuqorida aniqlangan (1) - regressiya tenglamasi ishonchli deb topildi va adekvatligi isbotlandi”. Ko‘p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda korxonalar taqsimlanmagan foydasi hajmining boshqaruv omillari ta’sirida o‘rta muddatda, ya’ni 2025-2028-yillarda o‘zgarishi qiymatlarini quyidagi 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval.

2025-2028-yillarda “QODIR TEKSTIL” va “SABO TEXTILE” da taqsimlanmagan foyda, boshqaruv xarajatlari miqdori, kapital qo‘yilmalarning istiqboli[2]

Yil	Taqsimlanmagan foyda , mln. so‘m (Y)		korxonaning boshqaruv xodimlari miqdori, kishi (X1)		korxonaning boshqaruv xarajatlari miqdori, mln. so‘m (X2)		korxonaning kapital qo‘yilmalar umumiy miqdori, mln. so‘m (X3)	
	A	B	A	B	A	B	A	B
2025	124899,8	88186,4	93	79	48317,48	21695,4	292,3	8498,2
2026	140640,0	99172,9	96	83	53124,63	23735,8	143,9	9479,7
2027	156380,2	109192,9	99	86	57922,78	25786,3	583,1	10461,2
2028	172120,4	121279,4	102	90	62718,93	27828,7	1140	11442,7

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tuzilgan ko‘p omilli modellardagi o‘zgaruvchilar koeffitsiyentlari asosida har bir omil qiymatining qo‘shilgan bir birligi hisobiga natijaviy omil qiymatining o‘zgarishini baholash mumkin. Taklif etilayotgan ko‘p omilli modellardan har ikki korxonada foydalanishda har bir omilning korxonalar bo‘yicha endogen omilga ta’sir kuchini hisobga olish lozim. Bunda “QODIR TEKSTIL” boshqaruv xodimlari sonini o‘zgartirmagan holda boshqaruv xarajatlarini oshirishga e’tibor qaratishi, “SABO TEXTILE” esa har uchala omil ko‘rsatkichlari hajmini resurs imkoniyatini optimal taqsimlagan holda oshirib borishi maqsadga muvofiq. Aniqlangan trendlardan foydalanish korxonalardagi boshqaruv jarayonini tashkil etishda kiritilayotgan resurs hajmini to‘g‘ri taqsimlagan holda omil birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Власов В.И., Крапивин О.М. Постатейный комментарий к Закону РФ "О занятости населения в Российской Федерации". Специально для системы ГАРАНТ, 2010 г.
2. Andijon viloyatida joylangan A - «Qodir tekstil»ga oid ma'lumotlar; B - «Sabo textile» ta'sirchanlik koeffitsiyentlari aniqlangan
3. Примерная форма должностной инструкции главного инженера по метрологии и стандартизации (подготовлено экспертами компании "Гарант")
https://www.amazoniainvestiga.info/index.php/amazonia/article/download/1123/1055151216123930_Сиваков_a_StratMen_k_p_K_Baz_henov_648zsk_11122016_174113.DOC.doc
4. Пашков Р.В., Юденков Ю.Н. Корпоративное управление в банке (монография). - "РУСАЙНС", 2016 г
5. Sattikulova Gulnora Ahmadxonovna (2025). Mintaqalarda sanoatni rivojlantirishning ahamiyati va ulardan samarali foydalanishning asosiy yo‘nalishlari. Xalqaro menejment va iqtisodiyot fundamental jurnal, 5 (04), 10-14.
<https://doi.org/10.37547/ijmef/Volume05Issue04-03>
6. Sattikulova Gulnora Ahmadxonovna (2025). Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning ahamiyati va undan samarali foydalanishning asosiy strategiyalari. Menejment va iqtisodiyot jurnal, 5 (04), 5-9. <https://doi.org/10.55640/jme-05-04-02>
7. Ашуров З.А. Акциядорлик корхоналарида корпоратив бошқарувни ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. - Т.: 2018. - Б.16
8. М.А.Ниязов О‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishning mintaqaviy xususiyatlari 08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati Toshkent - 2025 y.
9. Marifovich, M. M. (2023). The effect of product diversification on the economic efficiency of industrial enterprises. Deutsche Internationale Zeitschrift für Zeitgenossische Wissenschaft, (68).

10. Mukhtarov, M. (2023). Ways to increase the economic efficiency of textile industry enterprises based on product diversification. *Economics and Education*, 24(5), 274-278.
11. Marifovich, M. M. (2022). Means to increase efficiency in industrial production. *Confrencea*, 6(6), 104-107.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**